

SURXON VOHASI AHOLISINING KIYIM-KECHAK VA
ZEB-ZIYNAT BUYUMLARINING AN'ANAVIY TASNIFI
ТРАДИЦИОННАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОДЕЖДЫ И УКРАШЕНИЙ
ЖИТЕЛЕЙ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

TRADITIONAL CLASSIFICATION ODEJDY I UKRAINIAN JITELEY
SURKHANSKOG OAZISA

Xasanova Nodira Ibragimovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika universiteti

“Tarix va falsafa” kafedrasi dotsenti (PhD)

Email: nodira74xasanova@gmail.com

UDK: 9:433:908

ORCID 0009-0004-5344-5182

Ravshanova Mayjuda Nurmamatovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-kurs magistranti

ravshanovamavjuda504@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxon vohasi aholisining kiyimlaridagi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Turli madaniyatlarning kirib kelishi natijasida milliy an'anaviy liboslardagi o'zgarishlar haqida ilmiy qarashlar ifodalangan. Voha ayollari kiyim-kechaklarining asosiy qismi choksi, to'g'ri bichimli, uzun va keng, matoni tejashga qaratilgan tejamkor bichish usuli bilan tikilgan. Yenglari to'g'ri yoki torayib boruvchi, qo'lтиq osti va yon tomonlariga yamoq-qulfaklar qo'yilganligi haqidagi fikrlar to'liq olib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: “Yirmochi”, “ayol ko'ylak”, “zaifonachilar”, “yoqa”, “mo'ndi yoqa”li ko'ylak, lozima, “Qayroqi mahsilar”, “subinmoroni”, kashta.

Аннотация. В данной статье представлены сведения об одежде жителей Сурханского оазиса. Высказаны научные взгляды на изменения в национальной традиционной одежде в результате наплыва разных культур. Основная часть одежды женщин оазиса бесшовная, прямого покроя, длинная и широкая, сшитая экономичным способом раскroя, направленным на экономию ткани. Идея прямых или зауженных рукавов, с заплатами и петлями на подмышках и по бокам направлена на полное раскрытие.

Ключевые слова: «Йирмочи», «женская рубашка», «зайфоначилик», «воротник», «воротник мунди», лозима, «кайроки махсилар», «субинморони», вышивка.

Annotation. This article presents information about the clothing of the inhabitants of the Surkhan oasis. Scientific views on the changes in national traditional

clothing as a result of the influx of different cultures are expressed. The main part of the clothing of oasis women is seamless, straight-cut, long and wide, sewn with an economical cutting method aimed at saving fabric. The idea of straight or tapered sleeves, with patches and loops on the armpits and sides is aimed at fully revealing.

Keywords: “Yirmochi”, “women's shirt”, “zaifonachilar”, “collar”, “mundi collar” shirt, lozima, “Kayroqi mahsilar”, “subinmoroni”, embroidery.

Kirish. Yoqaning ikki turi – uzun tik o'yma yoqa (vertikal) va yelka yoqa (gorizontal) – ta'kidlanadi. “Yirmochi” yoki “yoqa” atamasi ko'ylakning bosh kirib chiqish uchun mo'ljallangan qismi uchun ishlatilishi ham qayd etiladi. «Pushkusho» va «jahak» kabi tik yoqali ko'ylaklarning mahalliy nomlari ham berilgan.

Shuningdek surxon vohasida qizlar, kelinlar va onalar kiyadigan ko'ylaklar orasida bir qancha farqlar mavjud. Qizlar odatda ko'ndalang yoqali ko'ylaklarni kiyishgan, kelinlar esa vertikal (tik) yoqali ko'ylaklarni ko‘proq ma’qul ko‘rgan. Shuningdek Onalar esa, ko'kragini ochishga qulay bo'lgan, yoqasi uzunroq va kengroq ko'ylaklarni kiyishgan, bu «onalik ko'yagli» yoki «ayol ko'yak» deb atalgan. Arab ayollarida esa, yoshga va turmush holatiga qarab ko'ylak uslubi farq qilgan.

Asosiy qism. Bezak va kashta: Ko'ylaklarga turli xil jiyak, chiroz, tama va ipak iplar yordamida kashta tikilgan. Kashta nafaqat go'zallik uchun, balki ko'ylakning chidamlilagini oshirish uchun ham ishlatilgan. Boysun va Sherobod tumanlarida yashovchi ayollar ko'ylaklarini juda bezakli qilib tikishgan. Milliy an'anaviy liboslar ayni paytda etnik o'ziga xoslikni ham aks ettiradi. Har bir etnik guruhning ko'ylaklarida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Arab ayollarining ko'ylaklari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va ularning etnik tarixiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, keksa ayollar oq yoki ko'k fondagi, qora kasta bilan bezatilgan ko'ylaklarni kiyganlar, arab qizlari esa “mo'ndi yoqa”li ko'ylaklarni kiyishgan. Shu bilan birga “Subinmoroni”: Arab ayollarini birinchi farzandi tug'ilgandan keyin “subinmoroni” deb atalgan maxsus ko'ylak kiyishgan.

XX asr boshlarida O'zbekistonning Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi ayollar kiyimlari, xususan, ko'ylak va shim (lozima)larning tikilishi, materiallari va kiyishga odatlanadi.

Kiyimlarning shakllanishi ijtimoiy va mehnat sharoitlariga ham bog‘liq bo‘lib, Ommaviy mehnatga jalb qilinishi tufayli ayollar amaliyroq kiyimlarga o'tishga intilishgan. Uyda erkin, keng ko'ylaklar kiyilgan bo'lsa, tashqarida ishlayotganlar belini bog'lab, qulaylikni ta'minlashgan. Bu ish sharoitiga moslashuvning aniq misolidir. Ayollar shimplarining ikki qavatli tuzilishi (pastki qismi arzon, yuqori qismi qimmat matodan) amaliy va ijtimoiy omillarni aks ettiradi. Arzonroq matodan tikilgan pastki qism tez eskiydi va amaliyroq bo'lsa, yuqori qismi, ko'riniib turadigan qismi esa

bayram va taqdimotlar uchun bezakli, qimmatbaho matolardan tikilgan. Bu moddiy imkoniyatlar va ijtimoiy mavqe bilan bog'liq.

Barcha davrlarda etnik va mintaqaviy xususiyatlari ham an'anaviy kiyimlarga ta'sir qilgan asosiy omillardan biri bo'lib kelgan. Shunga ko'ra o'zbek, tojik, qo'ng'iroq, chig'atoy, barlos ayollarining kiyimlariga bir-biriga o'xshashlik va farqlar mavjud bo'lgan. Biroq, asosiy xususiyatlari (keng shim, bel bog'lash) umumiy mintaqaviy an'ana ekanligi ta'kidlanadi.

Tahlil va takliflar. Surxondaryoning tog'li hududlarida chorvachilik bilan shug'llanuvchi ayollarning echki junidan tikilgan issiq shimplar kiyishi geografik sharoitga moslashuvning yaqqol ko'rinishidir.

Ayollar shimplarining matolari va ranglari yoshga qarab ham tanlangan. Yosh qizlar yorqin rangli matolardan tikilgan shimplar kiygan bo'lsa, katta yoshdagi ayollar va qariyalar oddiyroq matolarni afzal ko'rishgan. Bu yoshga va ijtimoiy mavqeaga bog'liq estetik va amaliy tanlovdır. To'y va tantanalarda kiyiladigan shimplar qimmatbaho matolardan tikilishi ham shu holatni tasdiqlaydi.

Vohada kiyimlarga oid urf-odatlar azaldan mavjud bo'lib kelgan. «Bola yo'li ochilsin» degan niyat bilan ko'p farzandli ayollarning befarzand xotinlarga shim bog'ini berishi an'anaviy e'tiqodlar va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Bu marosimlar, afsonalar va e'tiqodlarning kiyimlar bilan bog'liqligidan dalolat beradi.

O'zbekistonning janubiy hududi ayollarining an'anaviy kiyimlarini, xususan, bosh kiyimlari va oyoq kiyimlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bosh kiyimlari o'rganiladigan hudud ayollari kiyimining ajralmas qismi bo'lib, ularning yoshi, etnik kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeい va yil fasliga qarab turli xil turlari mavjud bo'lgan. Bosh kiyim va soch turmagi orqali ayolning oiladagi mavqeい (turmushga chiqqan/chiqmagan, farzandi bor/yo'q, yoshi) aniqlangan. Bosh kiyimlar O'rta Osiyo xalqlarining etnik xususiyatlarini aks ettiradi va mintaqaviy xususiyatlari bilan birga mahalliy o'ziga xosliklarni ham namoyon qiladi.

Ayollar oyoq kiyimlari (mahsi, kalish, nug'ay kovush, hakkari kovush, teridan tikilgan etiklar) juda qadim zamonlardan mavjud bo'lib, inson tanasini himoya qilishning dastlabki shakli hisoblanadi. XIX asr oxiridan boshlab Rossiyanan keltirilgan rezinkali oyoq kiyimlari keng tarqala boshlagan. Mahalliy ustalar (“zaifonachilar”) tomonidan tayyorlangan oyoq kiyimlari bilan birga, fabrikalarda ishlab chiqarilgan oyoq kiyimlari ham mavjud bo'lgan. “Qayroqi mahsilar” deb ataluvchi echki terisidan tikilgan qattiq mahsilar ham keng tarqalgan bo'lgan.

Umuman olganda, O'zbekistonning janubiy hududi ayollarining an'anaviy kiyimlarining tarkibiy qismlari ularning tarixi, ijtimoiy va madaniy ahamiyati, shuningdek, mintaqaviy va etnik xususiyatlarini ko'rsatadi. Matnda Surxon vodiysi ayollarining XIX-XX asrlar boshlarida kiygan oyoq kiyimlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Unga ko'ra, asosiy oyoq kiyimlari mahsi bo'lib, keksa erkaklar ham

foydalangan. O'tgan asr o'rtalaridan boshlab, mahsi laklangan teridan («amerikacha teri» deb atalgan) tayyorlana boshlagan. Mahsi doimo kalish bilan kiyilgan va shaharlik ayollar uyda ham mahsi kiyishgan, chunki ayollarning yalangoyoq yurishini begona erkaklar ko'rishi mumkin emas edi.

XIX asr oxirida boy oilalardagi ayollar uzun, tizzagacha bo'lган naqshli etiklar kiyishgan. Qishloq ayollari esa popuk kovush kiyishgan, ularning yog'och yoki suyak poshnalari bo'lган turlari «hakkari kovush», uch qismi ilmoq ko'rinishida qayrilganlari esa «no'g'ay kovush» deb atalgan. Oyoq kiyimlarining ko'rinishi va bezagi kosib va charmchilarning mahoratiga bog'liq bo'lган. XIX asr oxiri - XX asr boshlaridan Rossiya fabrikalarida tayyorlangan kalish keng tarqalgan bo'lib, ular «qizil kalish», «mallalish» deb nomlangan. Dastlab qo'lda tikilgan jiloblar (paypoq) bilan kiyilgan kalish keyinchalik fabrika paypoqlari bilan kiyila boshlangan.

Xulosa: Umuman olganda, Surxon voha ayollarining an'anaviy kiyimlarining o'ziga xos xususiyatlari ega bo'lib, matoni tejashta qaratilgan amaliyligi va ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabilar buni aks ettiradi. Tahlil etnik kiyimlarning tarixiy rivojlanishi va zamonaviy dunyoda o'z o'rnini saqlab qolishini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning mazkur hududlarida ayollar kiyimlari orqali ijtimoiy tuzum, iqtisodiy sharoit, etnik va mintaqaviy xususiyatlari, shuningdek, diniy va an'anaviy qarashlarni aks ettiradi. Kiyimlar nafaqat amaliy ehtiyojlarni qondirish vositali, balki ijtimoiy va madaniy identifikatsiyaning muhim belgisi bo'lган.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Задыхина К.Н., Сазонова М.В. Мужская одежда узбеков Хорезма конца XIX-начала XX в. // Костюм народов Средней Азии.-М., 1979.-С.151-152.
229
2. Исмаилов Х. Головные уборы узбечек конца XIX-начала XX века // Общественные науки в Узбекистане. 1977. № 6. -С.50.
3. Турсунов Н. Н., Алламуратов Ш. А. Этническая история горцев южного Узбекистана //Бюллетень науки и практики. 2020. Т. 6. – №. 6. С. 312-317.
- 4.Ismoilov H. An'anaviy o'zbek kiyimlari. -Toshkent: Fan, 1978. B.28.
5. Davlatova S.T. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik.- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.-B.76.
6. Ibragimova M.Yu. Surxondaryo vohasi aholisining an'anaviy kiyimlari va taqinchoqlari. (XIX asr oxiri XX asr boshlari). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent, 2004.-B.66.
7. Сухарева О.А. Костюм народов Средний Азии. Опыт анализа покровов традиционной туникаобразной. «Среднеазиатской одежды в плане их истории и эволюции». (Историко-этнографической очерки) М.: «Наука», 1979.-С.81.
8. Шаниязов К., Исмаилов Х. Этнографической очерки материальная

- культура узбеков конец XIX- начало XX века. -Т., 1981.-С.76-78.
9. Исмаилов. Х. Головные уборы узбечек конца XIX- начала XX века.-Т., ОНУ, 1977. №6. -С.50.
10. Арманганян А.С. Обувь древней Армении. «Ереван», 1978.-С.32.
11. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма: Самарканд 2-половина XIX-начало XX вв.). - М.: Наука, 1982. - С.68.
12. Tursunov N.N. Surxon vohasi aholisi moddiy madaniyatidagi transformasion jarayonlar. -Т.: «Yangi nashr», 2019.-372 Б.
13. Алламуратов Ш., Джураева У. XIX аср охири XX аср бошларида шаркий Бухоро бекликларида савдо-сотик ҳунармандчилик муносабатлари //Общество и инновации. 2021. Т. 2. – №. 3/S. - С. 105-110.
14. Турсунов Н. Н., Алламуратов Ш. А. Развитие торговых отношений и ремесел в бекствах Восточной Бухары //Бюллетень науки и практики. 2021. - Т. 7. - №. 3. - С. 348-353.
15. Алламуратов Ш. А. Марказий Осие халқлари маданий-диний алоқаларида Амударе сув йўлининг ўрни //Ўтмишга назар. 2019. №. 24. С. 23.
16. Allamuratova X. CONTAMINATION NAMES IN UZBEK ANTHROPOONYMICS, THEIR FORMATION //Science and innovation. - 2023. - Т. 2. -№. С6. - С. 69-73.
17. Allamuratova X. LINGUISTIC FEATURES OF CONTOMINATIONAL AND APOTROPEIC NAMES IN THE SYSTEM OF ANTHROPOONYMS OF UZBEKISTAN //Theoretical & Applied Science. - 2020. - No. 2.-С. 141-145.